

**O’ZBEK TILIDAGI MATNLARNI INGLIZ TILIDA TARJIMA QILGANDA  
KELIB CHIQADIGAN LEKSIKOGRAFIK MUAMMOLAR**

***Uzoqova Marjona Sherali qizi***

*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti,*

*Ingliz tili uchinchi fakulteti talabasi*

[uzoqovamarjona14@gmail.com](mailto:uzoqovamarjona14@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda tarjima sohasida dolzARB muammolardan biri bo’lgan leksikografik muammolar haqida gap boradi. Leksikografik muammolar asosan ikki xil yondashuv: Ijodiy va moslashuvchanlik orqali yoritib berilgan va muammolarni oldini olishga qaratilgan bir qancha yechimlar ham berib o’tilgan. Bunga qo’shimcha holatda muammolar ushbu jarayonga qo’yilgan va misollar tariqasida o’rgnib chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** Lingvistika, Tilshunoslik, tarjimon, ijodiy yondashuv, moslashuvchanlik yondashuni, leksik muammo, ekvivalent so’zlar, til qoidalari, leksikografiya.

Nafaqat O’zbek tili balki butun dunyo tillari haqida gapirganimizda hayolimizga birinchi keladigan soha bu – Lingvistika sohasi hisoblanadi. Chunki til yaralibdiki, inson Lingvistikaning ya’ni Tilshunoslikning tubiga tushdi va qanchadan qancha yangiliklar, tadqiqotlar va kashfiyotlar o’tqazib kelmoqda. Bular haqida gapirar ekanmiz, kopchilikni qiziqtiradigan narsa bu – Lingvistika nima? Va u o’z ichiga nimalarni qamrab oladi? -degan savollar keladi.

**Lingvistika** – bu tillarni o’rganuvchi fan demakdir. To’liqroq qilib aytganda tilning ijtimoiy tabiatni, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi va amal qilish kabilarni o’rganuvchi va xabar beruvchi fandir.

Biz nega lingvistika ya’ni tilshunoslik faniga ehtiyoj sezamiz? Negaki dunyo turli xildagi insonlar bilan qoplangan. Ma’lum bir hududga tegishli insonlarning o’zlari foydalanadigan va bir birlari bilan muloqot qilishda foydalanadigan o’z tillari bor. Yer yuzida odamlar kabi tillar ham turli tumanni tashkil qilar ekan, inson doimo tillarni o’rganishga moyil va ehtiyojmand. Yana qo’shimcha holatda ular o’zga til vaqillarini eshitishga, tushunishga va hattoki shu tilda gapirishga moyillik sezishadi. Ayniqsa bu holatlar dunyonи o’rganish, o’zgalar bilan muloqaot qilish kabi jarayonlarda juda ham qo’l keladi. Tilshunoslik sohasi keng. Tilshunoslik fanini biz ikkiga bo’lib o’rganamiz. Amaliy tilshunoslik va nazariy tilshunoslik. Mavjud til qoidalariini hayotda tadbiq qilgan holda o’rganish amaliy tilshunoslik deyiladi.

**Leksikografiya** – so’zi yunonchadan olingan bo’lib, amaliy lug‘atchilik demakdir.

Bir tildagi so’zlarni boshqa tillarga yoki aksincha boshqa tillardagi so’zlarni o’zimizni tilga tarjima qilar ekanmiz, albatta, Leksikografiya sohasi bilan uzviy bog’liq bo’lgan holda ish olib borishga to‘g’ri keladi. Ushbu soha ham ko’p qamrovli hisoblanib, turli xildagi muammolarni qamrab oladi. Ularning ko’p uchrab turadigani leksik muammolardir. Masalan: ingliz tilidagi “East or West, home is best” iborasi o’zbek tilidagi “O‘z uying o‘lan to‘shaging” maqoliga to‘g’ri keladi. Ammo tarjimada So’zga-so’z yondashuvidan foydalanilmagan. Unda tarjima orqali umumiy ma’no keltirib chiqarilib, so’ngra bunga nisbatan ekvivalent o’zbek tilida mavjud maqollar yoki iboralar orasidan olingan. Ba’zi hollarda shu kabi tarjimalarda umumiy ma’nosiga teng kela oladigan ibora topilmaydigan vaziyatlar ham uchrab turadi. Bu holatda tarjimonlardan ushbu jumlalarning o’zbek tilida qo’llay olishlik mumkin bo’lgan muqobilini yaratish yoki ishlatish uchun tilga olib kirmaslik kabi vazifalar talab qilinadi. Bu ham leksikografik muammolarning bir turi hisoblanadi.

Bundan tashqari, tarjima sohasida ijodiy va moslashuvchan yondashuvlar ham mavjuddir.

**Ijodiy yondashuv** – tarjima qilish davomida faqat so’zlarning muqobil tarjimasidan foydalanish emas, balki tarjimondan ushbu jarayonda ma’no elementlarini tushurib qoldirmagan tarzda o’z muqobillaridan foydalanish demakdir. Masalan biror bir turdagи badiiy asarni tarjima qilish davomida matn mazmunini tashkil etuvchi lisoniy elementlar ya’ni: information, stilistik yoki estetik vazifalar bajarilishi talab etiladi. Shu bilan bir qatorda tarjima sohasida moslashuvchanlik yondashuvi ham mavjud.

**Moslashuvchanlik yondashuvi** – bu bo’lib turgan jarayonda har bir konteksti o’zgarishlarsiz qabul qilish.

Moslashuvchanlik yondashuvlaridan ko’pincha rasmiy hujjatlarni tarjima qilganda foydalaniladi. Unda barcha ish yuritish hujjatlari chuqur ma’no talab etmaydi va bu tarjimondan shunchaki bor so’zlarni o’z o’rnida tarjima qilishni va o‘quvchiga ma’noni borligicha yetqazishga hizmat qiladi. Bu kabi hujjat ishlarida va ular orasida shunday so’zlar ham uchrab turadiki ularning bir til doirasida maqbul tarjimasi yo’q. Bu so’zlarni grammatik jihatdan to‘g’ri joylashtirish va uni tarjima qilmaslik kabi holatlarga moslashuvchanlik yondashuvi deyiladi.

Umumiy qilib aytadigan bo’lsak til va tarjima sohalari juda murakkab jarayon va u jarayon ishtirokchisidan grammatik, leksik, leksikologik va leksikografik mahoratlarni talab qiladi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Ingliz tilidagi sanalarni o’zbek tiliga tarjima etishning leksik muammolari. Maqola. 2022. Komilova Xabibaxon Zafarbek qizi, Gavharoy Isroiljon qizi.

2. Ingliz tilidagi matnni o’zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan leksikologik va grammatik o’zgarishlar tahlili. (J.K. Raulining qalamiga mansub “Garri potter va maxfiy hujra” romani misolida). Maqola. 2021. Solijonov Jurali Kamoljonovich, Mamaraimova Jamila Botir qizi.
3. Integrativ yondashuv asosida bo’lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish. Maqola. 2022. Razzakova Dilnoza Akramovna <https://doi.org/10.5281/zenodo.6634947>
4. Tarjimani ilmiy-ijodiy jarayon sifatida tadqiq etiah usullari. Maqola. 2022. Maxliyo Xabibullayeva. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7455059>